

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 5



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
5-son
oktabr, 2025

October 2025
Volume 3
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika
universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya
universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет

Московский энергетический институт Войнаш Сергей Александрович

Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве
РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве
РФ

Садриддинов Манучехр Исмоиддинович Международный университет
туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований

международных экономических отношений, Финансовый университет при
Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета.

Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и
бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета
Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита

Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории
Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового
администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа

Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт
проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями,

Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva GulruxJo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

October 2025

Volume 3

Number 5

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

Soliq tizimi modernizatsiyasi samarali tadbirlariga oid xorij tajribalari

Nomazov Baxrom Bobomuradovich

Зарубежный опыт эффективных мер по модернизации налоговой системы

Номазов Бахром Бобомурадович

Foreign experiences of effective measures for modernization of the tax system

Nomazov Bakhrom Bobomuradovich

Received: September 17, 2025 Revised: September 20, 2025

■ Accepted: September 23, 2025 ■ Published Online: October 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotidagi soliq tizimi modernizatsiyasining samarali tadbirlarini samarali o'zlashtirish orqali milliy soliq amaliyotimizni takomillashtirish zarurligi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, soliq tizimi modernizatsiyasi samarali tadbirlariga oid xorij tajribalarini o'rganish natijasida soliq tizimini modernizatsiyalash bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.
- **Kalit so'zlar:** soliq, modernizatsiya, tizim, soliq siyosati, model, soliq turlari, soliq nazorati, soliq organlari, investitsiya.
- **Аннотация:** В статье рассматривается необходимость совершенствования отечественной налоговой практики путем внедрения эффективных мер по модернизации налоговых систем в налоговую практику зарубежных стран. Также в результате изучения зарубежного опыта применения эффективных мер по модернизации налоговых систем разработаны выводы и предложения по модернизации налоговых систем.
- **Ключевые слова:** налог, модернизация, система, налоговая политика, модель, виды налогов, налоговый контроль, налоговые органы, инвестиции.
- **Abstract:** The article examines the need to improve our national tax practice by effectively adopting effective measures for tax system modernization in the tax practice of foreign countries. Also, as a result of studying foreign experiences regarding effective measures for tax system modernization, conclusions and proposals for tax system modernization were developed.
- **Key words:** tax, modernization, system, tax policy, model, types of taxes, tax control, tax authorities, investment.

KIRISH

Soliq tizimi modernizatsiyasining tizimli muammolari hamda ustuvor yo'nalishlari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda soliqlarning roli, soliq majburiyati va soliqdan qarzidorlik masalalari, xalqaro soliq munosabatlarini takomillashtirish har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatida alohida o'rin egallaydi va davlatni ushbu masalalarga oid tezkor, operativ va strategik tadbirlari ijrosini ta'minlashga undaydi.

Soliq tizimi modernizatsiyasi samarali tadbirlariga oid xorij tajribalarini o'rganish, tegishli tahlil va umumlashtirishlar orqali ularning e'tiborli jihatlarini tanlab olish, u yoki bu mamlakat boy ijobiy tajribalaridan samarali foydalanish har qanday mamlakat milliy soliq tizimi taraqqiyoti muammolarini ijobiy hal etishda juda muhimdir.

Biroq, ta'kidlash joizki, jahon soliq amaliyotining istalgan davlatiga xos u yoki bu qarorning mutloq ustunlikka ega bo'lgan maqbul shakli mavjud emas, soliq tizimi modernizatsiyasi samarali tadbirlariga oid u yoki bu vositaning, yangi tartib yoxud uslubiyo'tning qo'llanishi mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va hatto siyosiy holat bilan bog'liqdir. Lekin shunga qaramay, soliq tizimi taraqqiyotining ayrim modellariga xos bo'lgan hamda keng qo'llaniladigan samarali vosita va tadbirlarini tajriba-sinov tarzida qo'llash va ulardan maqbullarini amaliyotda foydalanishga tavsiya etish mumkin.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish hisobidan tarkibiy o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish, soliq-byudjet siyosatini yanada


chuqurlashtirish, yirik va kichik biznes hamda xususiy tad-birkorlikni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirishda yetakchi iqtisodchilar tomonidan xorijiy davlat-larda olib borilayotgan soliq siyosati va soliq tizimining amaldagi holati tahlilini olib borish hamda ulardagi ilg'or tajriba-larni milliy soliq tizimiga qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tadqiqotlarimizni olib borish jarayonida kuzatish, jamlash va guruhlash, taqqoslash, analiz va sintez metodlaridan keng foydalandik. Xorij olimlari tadqiqotlari va adabiyotlari tahlilini o'tkazdik. Soliq tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qildik. Shuningdek, tadqiqotlarimiz natijadorligini ta'minlash maqsadida soha vakillaridan so'rovnomalar oldik. Tahlil va natijalar

Rivojlangan mamlakatlar soliqqa tortish bo'yicha nisbatan ko'proq tajribaga egadir-lar, chunki ularda zamonaviy ko'rinishdagi soliq tizimi o'tgan asrning 60-70 yillarida shakllangan. O'zbekistonda esa mustaqillikka erishgandan so'ng soliq tizimi yangidan shakllantirildi va bugungi kunda islohotlar natijasida mo'tadil tizimga aylandi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan chet el mamlakatlarida keng imtiyoz-lar va chegirmalarga ega bo'lgan progressiv soliq stavkali to'g'ri soliqqa tortish mexa-nizmi yetakchilik qiladi. Chet mamlakatlar-ning byudjetni shakllantiruvchi asosiy soliq stavkalari darajasi O'zbekiston soliq stavkalariga nisbatan ancha yuqoridir. Ayrim soliqlar masalan, meros va hadya solig'i O'zbekiston soliq tizimida mavjud emas.



1-rasm. Xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida korporativ soliqlarni rejalashtirish modellari xususiyatlari.

Avvalombor, rivojlangan davlatlar soliq amaliyotida hozirda bo'lgan soliq turlari tahlili tasdiqlashicha, soliqlar tizimiga xos bo'lgan ayrim noan'anaviy soliq turlari, ular elementlarining g'ayrioddiylik yoki alohidaligi, davlat soliq siyosatidagi barqarorlik va maqsadga yo'naltirilganlik, soliq rag'batlari va preferensiya xususiyatidagi davlat qo'llab-quvvatlashlarining manzilliligi hamda ijrosining nazorat orqali qat'iy ta'minlanishi, intizomli va intizomsiz soliq to'lovchilarga davlat munosabatining qat'iyligi, soliq organlari

tomonidan soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatning qanoatlanarliligi darajasining o'sib borayotganligi, soliq munosabatlari ishtirokchilari faoliyatini baholashda gorizontol monitoringdan foydalanish ustuvorligi kabi afzalliklarini jahon soliq amaliyoti tajribalari tasdiqlamoqda. Shu munosabat bilan dunyoning turli mamlakatlari soliq amaliyotida hozirgi kunda muvaffaqiyatli tarzda foydalanib kelayotgan soliq nazoratining noan'anaviy usullarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval

Xorijiy davlatlar soliq amaliyotida mavjud noan'anaviy soliq turlari va soliq nazorati tadbirlari [7]

Xorijiy davlatlarda mavjud noan'anaviy soliqqa tortish ob'ektlari		Xorijiy davlatlar soliq nazorati amaliyotidagi noan'anaviy tadbirlar
Bevosita soliqlar	Bilvosita soliqlar	
1. Daromad solig'i	1. Xizmat ko'rsatish solig'i	1. Soliq qonunchiligi buzilishi ustidan kompleks-nazorat (Gollandiya)
2. Yuqori foydaga soliq	2. Dam olish uchun soliq	2. Savdo Palatasi va fiskal organlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi (Italiya)
3. Garov.Bitim solig'i.	3. Bojxona to'lovlari	3. Soliq to'lovchilarning vertikal-gorizontol monitoringi (Gollandiya)
4. Korporatsiya solig'i	4. QQS	4. "Tashrif va musodara qilish" muolajasi (Norvegiya, Finlyandiya)
5. Sovg'a solig'i	5. Sotish solig'i	5. Soliq xizmati kengaytirilgan ma'lumotlar bankidan foydalanish (Finlyandiya)
		6. Soliq rejimini tanlash imkoniyati bilan soliq to'lovchi individual ma'sulligi tartibini kiritish (Norvegiya)

Har qaysi mamlakat soliq tizimida amalda mavjud bo'lgan an'anaviy va noan'anaviy soliq turlari va ular yuzasidan soliq nazorati tadbirlarini o'rganish ko'p jihatdan davlat soliq siyosati vazifalarining holati va uning samaradorligini baholash imkonini beradi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatidagi muhim va tartibga solinishi ahamiyatli bo'lgan soliq turi – korporatsiyalar foydasidan soliq hisoblanadi.

Investitsiyalarni soliqqa tortishda qulay sharoitlar yaratish yuqori rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida o'z aksini topgan. Bu mamlakatlarda investitsion soliq krediti va tezlashtirilgan amortizatsiya mavjud. Bu esa xususiy kapital qo'yilmalarning o'sishini ta'minlaydi. Kompaniyalar aksiyadorlik shaklida ko'proq tashkil etilgani bois ikki marta soliqqa tortish muammosi (kompaniya va aksiyador darajasida) paydo bo'ldi. Shuning uchun foydani soliqqa tortish tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keldi. Germaniya, Yaponiya, Avstriya, Norvegiya va bir qator boshqa mamlakatlarda korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqning turli stavkalari amal qilmoqda: yuqori

stavkalar taqsimlanmagan foyda va pasaytirilgan stavkalar taqsimlangan foyda uchun. Belgiyada, Buyuk Britaniyada, Daniyada, Kanadada, Fransiya va yana boshqa bir qator mamlakatlarda aksiyadorlar dividendlariga daromad solig'i solishda soliq kreditlari nazarda tutilgan.

Rivojlangan mamlakatlardan biri AQShda ham soliq siyosati borgan sari takomillashib, kengayib bormoqda. Soliqlar iqtisodiyotni rivojlantirish vositasi bo'lib ham xizmat qilmoqda. AQSh soliq tizimi uch darajadan iborat bo'lib, ular: federal soliqlar, shtatlar solig'i hamda mahalliy soliqlarga bo'linadi.

Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq stavkasi AQShda maksimum

39 foizni tashkil etadi.

"Buyuk Britaniya kompaniyalari kapitalning o'sishidan soliqni ham to'laydilar. Norezident kompaniyalar bu soliqni to'lamaydilar" [1].

"Korporativ daromad solig'i jamiyatning kelajakdagi rivojlanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu hujjat uchta usulda mavjud tadqiqotlarga o'z hissasini

qo'shadi: birinchi navbatda, mavjud soliq manbalarini kengaytirib, soliqlar odamlarning kelajagiga bo'lgan munosabati kabi asosiy shaxsiy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini isbotlovchi dalillarni taqdim etadi" [2].

"Germaniyada korporatsiyalar foydasiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar bor. Soliq stavkasi 25 foizni tashkil etadi. Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda foyda ikkiga bo'linadi:

taqsimlanadigan

taqsimlanmaydigan" [3].

"Yaponiyada korporatsiyalar foydasiga soliqning stavkasi 37 foizni tashkil etadi. Ushbu soliqqa nisbatan ham pasaytiriluvchi koeffitsientlar qo'llaniladi. Eng yuqori soliq

stavkasi 48,8 foizni tashkil etadi" [4].

Jahon amaliyoti tasdiqlashicha, soliq tizimi modernizatsiyasiga xizmat qiluvchi davlat soliq xizmatining institutsional asoslarini takomillashtirishga oid xorij tajribalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarining doimiy tarzda o'rganib borilishi va baholanishi juda zarurdir.


Hozirda u yoki bu mamlakat davlat boshqaruvi tizimida soliq organlari tuzilmasi faoliyatining uch turi uchrashi mumkin: bitta yoki bir nechta vazirliklar doirasidagi xizmat yoki agentlik; yagona yarim mustaqil organ; boshqaruv (kuzatuv) kengashiga hisobot beruvchi yagona yarim mustaqil organ (2-rasm).



2-rasm. Jahon mamlakatlari davlat boshqaruvi tizimida soliq organlari tuzilmasining guruhlanishi

Mazkur turkumlashga ko'ra, u yoki bu mamlakatda soliq tizimi modernizatsiyasiga xizmat qiluvchi va ushbu tadbirlar ijrosiga ma'sul organing institutsional tarkibi va maqomi

farqlanishi mumkin. Biroq, umumiy tarzda, ularning tashkiliy tarkibi va bo'ysunuvi tamoyillariga ko'ra farqlanishi ancha sezilarlidir.



3-rasm. Jahon mamlakatlari soliq organlarining tashkiliy tarkibi va bo'ysunuvi tamoyillari

Jahon mamlakatlari soliq organlarining tashkiliy tarkibi va bo'ysunuvi tamoyillariga ko'ra 180 ta mamlakat bo'yicha farqlanishining o'rganilishi ularning to'rtta mezon bo'yicha guruhlarga bo'linishini va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining aralash modelga xosligini ko'rsatdi.

Ko'pchilik davlatlar (AQSh, Fransiya, Germaniya, Shveysariya)

soliq ma'muriyatchiligi amaliyotida milliy soliq qonunchiligida "soliq to'lovchilarning soliq tekshiruvlari jarayonida tegishli tushuntirish va asoslarni tekshiruvchilarga yetkazib berishlarining majburiyigi" belgilab qo'yilgan va ushbu talabning buzilishi qonuniy tarzda javobgarlik uchun asos bo'ladi.

2-jadval

Alohida olingan xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotidagi soliq tizimi modernizatsiyasi samarali tadbirlari

Mamlakatlar	Tadbirning farqlovchi xususiyati
AQSh	Asosiy e'tibor to'g'ri soliqlarga, asosan daromad solig'iga qaratilgan. Mazkur soliq progressiv stavkada olinadi, tartibga solishning murakkab, lekin mustahkam tarkibiga ega, soliq stavkalari va imtiyozlar ko'lami hududiy miqyosda farqlanishi mumkin.
Evropa Ittifoqi davlatlari	Asosiy urg'u egri soliqlarga, xususan QQSga beriladi. Mazkur soliq byudjetga doimiy va salmoqli tushumlarni ta'minlaydi, isloh qilishda o'ta qat'iy va mustahkamdir. Yevropa Ittifoqi ichki hududida QQSga nisbatan yagona xuquqiy mexanizm amal qiladi, biroq soliqning stavkalari va imtiyozlari a'zo-mamlakatlar o'rtasida farq qiladi.
Yaponiya	Davlat tushumlarning asosiy qismini byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar hisobiga, yanada aniqroq tarzda mehnatkashlarning ijtimoiy sug'urta va ta'minotiga ajratmalar orqali ta'minlaydi. Mazkur ajratmalar ham to'g'ri va egri soliqlar belgilariga egadir – yollanma ishchilar tomonidan ish xaqidan to'lanadi va ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulot va xizmatlar qiymatiga qo'shiladi. osvennyx nalogov – uplachivayutsya naemnymi.
Irlandiya	Korporatsiyalar foydasidan soliq stavkasining pastligi ham chetdan kapitalning oqib kelishini ham ichki ishlab chiqarish o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi. Soliq maslaxatchiligi rivojlangan tizimi va itizomli soliq to'lovchilarga soliq ma'muriyatchiligining maxsus xizmat rejimi qo'llaniladi.
Buyuk Britaniya, Fransiya	Alohida hududlar, ishlab chiqarish tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash uchun rag'batlar tizimining mavjudligi: kapital qo'yilmalar uchun byudjetdan bir maralik to'lovlar mavjudligi, ishlab chiqarish inshootlari qurish uchun davlat subsidiyalarining ajratilishi, soliq imtiyozlari va preferensiyalari keng ko'laminin amal qilishi. Soliq madaniyatining yuqori darajasi shakllanganligi bois soliq to'lashning ixtiyoriyligi tamoyili ko'proq hayot tarziga aylanganligi bois intizomli soliq to'lovchilarga soliq organlari tomonidan ko'proq maslaxat berish tarzidagi xizmatlar amalga oshiriladi.
Germaniya	Kelgusi taraqqiyot uchun yuksak imkoniyatlarga ega bo'lishi kutilayotgan iqtisodiy qoloq hududlarga mablag' ajratayotgan kompaniyalarga yirik soliq imtiyozlari tizimining qo'llanilishi. Soliqlar bo'yicha to'lov intizomiga rioya qilinishini nazorat qilish tadbirlarining qat'iyligi, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga jinoiy javobgarlikning mavjudligi.

Soliq tizimi modernizatsiyasi samarali vositalariga oid xorij tajribalarida Kanada amaliyotida birinchilardan bo'lib joriy etilgan «mavzuli ekspress tekshiruvlariga tushgan soliq to'lovchilar uchun mazkur tekshiruvchilar tarkibiga majburiy tarzda soliq to'lovchi faoliyati texnologiyasi bo'yicha mutaxassisni ham qo'shish» chorasini ham kiradi.

Ayrim ilg'or xorijiy mamlakatlar (Shveysariya, Fransiya, AQSh) soliq amaliyotida unumli tarzda qo'llanilib kelayotgan muhim tajriba – “soliq to'lovchilar soliq tarixiga oid ma'lumotlarning shaffofligi va ulardan foydalanuvchi davlat organlari uchun maxsus ruxsatnomasiz tizimli tarzda foydalana olish imkoniyatining yaratilganligi” mamlakatimiz soliq amaliyoti uchun ham ahamiyatlidir.

Bu kabi ijobiy va kreativ tadbirlarni mamlakatimiz soliq amaliyotiga qo'llash soliq xizmati ixtiyorida zarur ma'lumot bazasini to'liq shakllantirish va ularni tahlil qilib borish bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim va tarkiblar faoliyatini yo'lga qo'yish zaruriyati yuzaga keladi.

Ushbu zaruriyat tufayli soliq tizimi modernizatsiyasi samaradorligini oshirishda qator xorijiy mamlakatlar (AQSh, Kanada, Norvegiya, Meksika, Avstraliya, Fransiya) “soliq amaliyotida soliq xizmati organlarida lavozimlar reglamentini qayta ko'rib chiqish” ni va har qaysi bo'lim ma'suliyati va vakolatlarini ifodalovchi xizmat Nizomlarini qonuniy tarzda yangidan tasdiqlanishini shart qilib qo'ydi.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotidagi soliq tizimi modernizatsiyasi samarali tadbirlarini samarali o'zlashtirish milliy soliq amaliyotimiz takomillashuvi uchun zarurdir (2-jadval).

Umuman, soliq tizimini modernizatsiya qilish samarali tadbirlariga oid xorij tajribalaridan keng foydalanish soliq tizimining hozirgi zamon muammolariga yechim topishga imkon beradi hamda mamlakatimiz soliq tizimi kelgusi rivojlanish istiqbollari belgilash uchun muhimdir.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Nomazov Baxrom Bobomuradovich - Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti vazifasini bajaruvchisi, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) / Nomazov Bakhrom Bobomuradovich - Acting Associate Professor of the Department of "Innovative Economics" at Karshi State Technical University, Doctor of Philosophy in Economics (PhD), / Номазов Бахром Бобомурадович - И.о. доцента кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета, доктор философии по экономике (PhD)

► baxromb@gmail.com

■ ORCID: 0009-0002-7964-9162

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. //Учебное пособие. -М.: “Юрайт-Издат”. 2017. стр. 108.
2. Riahi-Belkaoui, A. (2004). Relationship between tax compliance internationally and selected determinants of tax morale. *Journal of International Accounting, Auditing and Taxation*, 13(2), 135–143.
3. James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2015 e. p. 121.
4. Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: “КноРус”. 2017. Стр. 102.
5. Nomazov B. Soliq tizimi modernizatsiyasining kontseptual asoslarini takomillashtirish //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 10.
6. Номазов Б. Б. Особенности совершенствования концептуальных основ при модернизации налоговой системы //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-2 (119). – С. 830-834.
7. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1061951804000151/>

Ekonometrika va
statistika

Эконометрика и
статистика

Econometrics and
statistics